

## TABIBIY LIRIKASIDA MUXAMMAS

**Dilmurod ASQAROV**

*O‘zRFA O‘zbek tili, adabiyoti va folklori instituti katta ilmiy xodimi, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)*

**DOI:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.20677006>

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada Xorazm adabiy muhitining yirik vakili Ahmad Tabibiy lirikasida muxammas janrining o‘rni va badiiy xususiyatlari yoritilgan. Shoir musammatlarining janriy tarkibi, muxammaslarning poetik qurilishi hamda ularda ishqiy-falsafiy mazmunning ifodalanish usullari tahlil qilinadi. Xususan, “So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?” radifli muxammas misolida ma‘shuqa va oshiq obrazlarining badiiy talqini, mumtoz poetik timsollarning qo‘llanishi, tashbeh, istiiora, mubolag‘a, tazod va takrir kabi san‘atlarning estetik vazifasi ochib beriladi. Shuningdek, Tabibiy ijodida muxammas janrining mumtoz adabiy an‘analar bilan uzviy bog‘liqligi hamda shoirning individual uslubi masalalariga e‘tibor qaratiladi.

**Kalit so‘zlar:** mumtoz adabiyot, lirika, musammat, muxammas, poetika, ma‘shuqa obrazi, oshiq obrazi, badiiy tasvir vositalari, ishq mavzusi, janr, adabiy muhiti.

**Abstract.** This article highlights the role and artistic features of the mukhammas genre in the lyrics of Ahmad Tabibi, a prominent representative of the Khorezm literary environment. The genre composition of the poet's musammats, the poetic construction of mukhammas, and the methods of expressing romantic and philosophical content in them are analyzed. In particular, on the example of the mukhamma with the line "So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?", the artistic interpretation of the images of the mistress and the lover, the use of classical poetic symbols, the aesthetic function of such arts as allegory, metaphor, hyperbole, tazod, and takrir are revealed. Also, attention is paid to the inextricable connection of the mukhammas genre with classical literary traditions in Tabibi's work and the issues of the poet's individual style.

**Keywords:** classical literature, lyrics, musammat, muhammas, poetics, image of the mistress, image of the lover, means of artistic depiction, theme of love, genre, literary environment.

**Аннотация.** В данной статье освещается роль и художественные особенности жанра мухаммас в лирическом творчестве Ахмада Табиби, видного представителя хорезмской литературной среды. Анализируется жанровая композиция мухаммас поэта, поэтическое построение мухаммас и методы выражения в них романтического и философского содержания. В частности, на примере мухаммас со строкой «So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?» раскрывается художественная интерпретация образов возлюбленной и любовника, использование классических поэтических символов, эстетическая функция таких приемов, как аллегория, метафора, гипербола, тазод и такрир. Также уделяется внимание неразрывной связи жанра мухаммас с классическими литературными традициями в творчестве Табиби и вопросам индивидуального стиля поэта.

**Ключевые слова:** классическая литература, лирика, мусаммат, мухамма, поэтика, образ возлюбленной, образ влюбленного, средства художественного изображения, тема любви, жанр, литературная среда.

Mumtoz adabiy merosni chuqur o‘rganish, undagi badiiy-estetik tamoyillarni zamonaviy adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan talqin etish bugungi kunning muhim



vazifalaridan biri hisoblanadi. Sharq xalqlari ma'naviy tafakkurining yuksak namunasi bo'lgan qo'lyozmalar, devonlar va tazkiralarning tarkibida hali ilmiy muomalaga to'liq kiritilmagan ko'plab badiiy asarlar mavjud. Bunday manbalar nafaqat milliy adabiyot tarixining boyligini namoyon etadi, balki ijodkorlarning poetik tafakkuri, badiiy tasvir vositalaridan foydalanish mahorati hamda janriy izlanishlari haqida muhim ilmiy xulosalar chiqarish imkonini beradi.

XIX asr Xorazm adabiy muhitining yirik namoyandalaridan biri Ahmad Tabibiy o'zbek mumtoz adabiyotida zullisonayn shoir, tarjimon, tazkiranavis va dostonnavis sifatida alohida mavqega ega. U mumtoz adabiyot an'alarini davom ettirish bilan birga, she'riy janrlarning badiiy imkoniyatlarini yanada kengaytirgan ijodkorlardan biridir. Shoirning turkiy va forsiy tillarda tartib bergan devonlari uning serqirra ijodiy faoliyatini aks ettiruvchi muhim manbalardir.

Tabibiy lirikasining muhim qismini musammatlar tashkil etadi. Shoir ijodida murabba'dan tortib muashshargacha bo'lgan deyarli barcha musammat shakllari uchraydi. Bu holat uning janriy imkoniyatlarni chuqur o'zlashtirganligini va poetik tajribaga boy ekanligini ko'rsatadi. Tadqiqotchilar tomonidan aniqlangan ma'lumotlarga ko'ra, Tabibiy turkiy tilda 360 dan ortiq musammat yaratgan bo'lib, bu ko'rsatkich o'zbek mumtoz adabiyoti tarixida alohida hodisa sifatida baholanishi mumkin.

Musammat atamasi arab tilidan kirib kelgan bo'lib, “ipga tizilgan marvaridlar” ma'nosini anglatadi. Bu janrning bunday nomlanishi misralar o'rtasidagi qofiyaviy va ritmik uyg'unlik bilan bog'liq. Sharq poetikasida musammatning nazariy asoslari ilk bor XI asrda Umar Roduyoniyning “Tarjimon ul-balog'a” asarida izohlangan. Keyinchalik Rashiddin Vatvot, Shams Qays Roziy, Nasriddin Tusiy, Sharafiddin Romiy, Husayn Voiz Koshifiy kabi nazariyotchilar tomonidan ushbu janrning poetik xususiyatlari batafsil yoritilgan. [1.35]

Mazkur janrning bunday ma'nosiga alohida to'xtalib o'tgan Atulloh Husayniy shunday yozadi: “*Arabiyat arboblari bir jamoasi depturlarkim, tasmit lug'atta marvoridni ipga tizmaktur, istilohta ersa andin iboratturkim, baytning ja'mi juzvlarin yo ba'zisin qofiyaga hilof qilib saj'lag'aylar va bayt marvorid ipidek va saj'langan juzvlar anga tizilgan donalardek bo'lg'ay*”. [2.400]

Adabiyotshunos G.Boltayeva: “Har qanday janrning tarixini tekshirishda uning nazariyasini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Bu janrning tarixiy taraqqiyoti, unda kechgan islohotlarning mazmuni, falsafiy-estetik mohiyati va janr tabiatidagi transformatsion jarayonlarning ildizini aniqlashga yordam beradi”, – deb yozadi. [3.15] Tabibiy musammatlari badiiyati XX asr o'zbek adabiyotida bu janrning o'ziga

xos spesifik belgilarini aniqlashda qo‘l keladi. “Janr – tarixiy poetikaning eng muhim kategoriyasidir. Janr taraqqiyotini tadqiq etishda tarixiy poetika muhim o‘rin egallab, estetik ideallarning o‘zgarishi janrlarda turli transformatsion jarayonlarning kechishi bilan bog‘liq”. [4.8-25]

Janrlar taraqqiyoti tarixiy poetikaning muhim tadqiqot obyektlaridan biridir. Har bir janr muayyan tarixiy davr estetik ehtiyojlari asosida shakllanib, keyinchalik yangi badiiy qarashlar ta’sirida takomillashib boradi. Musammat ham shunday janrlardan biri bo‘lib, uning taraqqiyoti Sharq she’riyati poetik tafakkurining rivojlanishi bilan chambarchas bog‘liqdir. Shu jihatdan qaralganda, Tabibiy musammatlari janr evolyutsiyasining XIX asrdagi muhim bosqichini aks ettiradi.

Sharq she’rshunosligida musammat nazariy jihatdan ilk bor XI asrning ko‘zga ko‘ringan she’rshunoslaridan Umar Roduyoniyning “Tarjimon ul-balog‘a” asarida asoslanadi. [6.152] Shundan keyin bu janrni o‘rganishga bo‘lgan qiziqish yanada rivoj topib, buning samarasida Rashiddin Vatvotning “Hadoyiq us-sehr” (XII asr), Shams Qays Roziyning “Al-mo‘jam” (XII asr), Hoja Nasriddin Tusiyning “Asos ul-iqtibos” (XII asr), Toji Hiraviyning “Daqoyiq ash-she’r” (XIV asr), Sharafiddin Romiyning “Haqoyiq al-daqoyiq” (XIV asr), Vohid Tabriziyning “Jame’ muxtasar” (XV asr), Qobul Muhammadning “Haft qulzum”, Husayn Voiz Koshifiyning “Badoye ul-afkor” asarlarida qimmatli qarashlar aks etgan. Jumladan, Husayn Voiz Koshifiy shunday bayon qiladi: “Musammat shuldurki, barcha misralar bir-biriga mos qofiyalar bilan ta’minlanadi, faqat oxirgi misra qofiyasi boshqacha bo‘ladi. Va bu turdagi bayt bir qofiya bilan bir necha bayt qofiyalangani uchun musammat deb ataladi”. [7.61]

Tabibiy lirikasida musammatning *tazmin musammat* turidan keng ko‘lamda foydalanilgan. Jumladan, Sh.Amonov tadqiqotida keltirilishicha, shoir Lutfiy, Navoiy, Husayniy, Fuzuliy, Munis, Ogahiy, Feruz, Mirzo, Komil, Xolis, Yusuf, Avaz, Ojiz, Haqiriy, Devoniy, Kamoliy, Doiy, Chokar, Ravnaq, Rojiy, Rog‘ib, Fano, Murodiy, Xodim, Xokiy, Shinosiy, Niyoziy, Mutrib, Habib, Umidiy, Bayoniy, Tolib, Asad, Oqil, Purkomil, Xayoliy, G‘ulomiy, Adliy, Fyuzot, Maoliy, Nadimiy, Balig‘o, Amir, Xon, Vazir, G‘oziy, Mushrif, Oshiq, Ado, Hoziq, Fazliy, Nola, Afsus, Xijlat, Vahmiy, Hotam, Ulviy, Vasfiy, Naf‘iy, Nasib, G‘aribiy, Boqiy, Avniy, Navras, Hoshim, Zotiy, Noiliy, Laylo, Zevar, Fitnat, Sham‘iy, Mohir, Ayniy, Muhibiy, Somiy, Qudsiy, Muxlis, Adliy, Partav, Qoil, Sobir – kabi 85 nafar shoir g‘azallariga taxmislar bog‘lagan. [1.35]

Ahmad Tabibiy ijodi bilan bog‘liq tadqiqotlarda shoir musammatlari haqida turli ma’lumotlar keltirilgan. Masalan, adabiyotshunos F.G‘anixo‘jayev “Ahmadjon Tabibiyning hayoti va ijodi” nomli tadqiqotida Ahmad Tabibiy

mumtoz janrlarning qariyb barcha turida ijod etaganini ta’kidlab, shoirning turkiy (o‘zbek) tilidagi adabiy merosi hajmi haqida quyidagi statistik ma’lumotlarni keltiradi: murabba’lar – 17 ta, muxammaslar – 307 ta, musaddaslar – 30 ta, musabba’ – 1 ta, musamman – 10 ta, mutassa’ – 1 ta, muashshar – 1 ta. [8.27] Shuningdek, Sh.Amonov Tabibiy adabiy merosi qo‘lyozma va toshbosma manbalari yuzasidan amalga oshirgan tadqiqotida kengroq ma’lumotlar berib o‘tadi, ya’ni matnshunos shoir musammatlari bilan bog‘liq quyidagi statistik ma’lumotni keltiradi: murabba’lar – 15 ta, muxammaslar – 307 ta, musaddaslar – 20 ta, musabba’ – 1 ta, musamman – 10 ta, mutassa’ – 1 ta, muashshar – 1 ta. [1.41]

Tabibiy devonlari tarkibida janrlarning rang-barangligi u ifodalagan g‘oya va mavzu bilan bog‘liqdir. Ahmad Tabibiy ijodi bilan bog‘liq olib borilgan tadqiqotlarda mavzular ko‘lami haqida turlicha qarashlar qayd etilgan. Mustaqillik yillaridan oldin Tabibiy hayoti va ijodi bilan tanishgan va tadqiqot ishlarini amalga oshirgan adabiyotshunoslardan F.G‘anixo‘jayev shoir ijodi mavzusi haqida: “Avvalo, shuni aytish kerakki, Tabibiy devonlari shartli ravishda nomlangan. Ularni bir-biridan ajratib turuvchi tema, g‘oyaviy yo‘nalish maqsad yo istak deyarlik sezilmaydi. Devonlarning nomidan anglashiladiki, ularning hammasi sevgi va sadoqat, ishq va muhabbat kabi insoniy fazilatga bag‘ishlangan. She’rlar klassik poeziyaning rang-barang turlarida yozilgan”. [9.15]

Shoir lirikasi mavzusi yuzasidan adabiyotshunos F.G‘anixo‘jayev umumiy fikrlarni bildirib o‘tgan bo‘lsa, matnshunos Sh.Amonov ularni quyidagi guruhlariga bo‘lib o‘rganishni tavsiya etadi: *diniy-tasavvufiy, ishqiy, ilm-ma’rifat, hasbi hol, musiqa va san’at, tabiat tasviri, ijtimoiy-falsafiy*<sup>60</sup>.

Tabibiy musammatlarida ishq-muhabbat mavzusi yetakchi o‘rin egallaydi. Biroq shoir lirikasini faqat ishqiy mavzular bilan chegaralash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Uning she’rlarida diniy-tasavvufiy qarashlar, ma’rifat targ‘ibi, tabiat tasviri, hasbi hol, musiqa va san’at masalalari, shuningdek, ijtimoiy-falsafiy mushohadalar ham muhim o‘rin tutadi. Bu esa shoir dunyoqarashining kengligi va hayot hodisalariga teran munosabatini ko‘rsatadi.

Tabibiy muxammaslarida ma’shuqa obrazi mumtoz poetika an’analari asosida yaratilgan bo‘lsa-da, ayrim tasvirlarda ijodkorning individual uslubi yaqqol seziladi. Xususan, “So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?” radifli muxammasida oshiqning ruhiy kechinmalari va ma’shuqaning betakror husni badiiy jihatdan mukammal ifodalangan. Shoir “sho‘xi sitamgor”, “la’li shakarbor”, “ko‘zi xunbor” kabi poetik birliklar orqali ma’shuqa obrazining murakkab va jozibador qirralarini ochib beradi. Oshiq esa “dilafgor”, “tani bemor”, “sitamdiyda” sifatlari vositasida

tasvirlanadi.

*Qaysi dilafgorni sho‘xi sitamgorisan,  
Qay tani bemorning la‘li shakarborisan,  
Qay ko‘zi xunborning qotili xunxorisan,  
Qaysi sitam diydaning dilbari g‘amxorisan,  
So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?*

Mazkur muxammasning birinchi bandi oshiq va ma‘shuqa munosabatlarining murakkab ruhiy-falsafiy qirralarini aks ettirishi bilan diqqatga sazovordir. Tabiiy munsarihi musammani matviyi makshuf bahridan foydalanib, she‘rga o‘ziga xos ohangdorlik baxsh etgan. Vaznning ravonligi mazmundagi iztirob va hayrat tuyg‘ularining yanada ta‘sirchan ifodalanishiga xizmat qiladi. Bandning dastlabki misralaridayoq lirik qahramon ma‘shuqaga murojaat qilib, uning qaysi oshiqning ko‘nglini asir etgani, qaysi dardmand qalbgaga taskin bergani va qaysi bechoraning taqdiriga ta‘sir ko‘rsatganini so‘roq shaklida bayon etadi. Ushbu savollar tashqi jihatdan ma‘shuqaning kimni sevishi bilan bog‘liq bo‘lsa-da, aslida ular oshiq qalbida kechayotgan iztirob, gumon va umidsizlik holatlarining badiiy ifodasidir. Har bir misrada takrorlanayotgan “qaysi” so‘zi oshiqning ruhiy beqarorligini kuchaytiradi. Shoir ma‘shuqa obrazini yaratishda mumtoz she‘riyatga xos bo‘lgan an‘anaviy poetik vositalardan unumli foydalanadi. “Sho‘xi sitamgor” birikmasi yorning beparvo va jafokash tabiatini ifodalasa, “la‘li shakarbor” tasviri uning so‘zlarining shirinligi anglatadi. “Ko‘zi xunbor” va “qotili xunxor” kabi obrazlar esa ma‘shuqaning nigohi oshiq qalbiga qanday ta‘sir ko‘rsatishini mubolag‘ali tarzda ifodalashga xizmat qilgan. Natijada yor bir vaqtning o‘zida ham mehr manbai, ham iztirob sababchisi sifatida gavdalanadi. Badda oshiqning ruhiy holati ham chuqur poetik talqin etilgan. “Dilafgor”, “tani bemor”, “sitamdiyda” kabi sifatlashlar lirik qahramonning iztirobli kechinmalarini ochib beradi. Bu tasvirlar orqali muhabbat yo‘lida chekayotgan azob-uqubatlarda oshiqning ma‘naviy kamolot bosqichi sifatida talqin qilinadi. Mumtoz she‘riyat an‘analariga ko‘ra, haqiqiy oshiq ma‘shuqa jafosini ham ne‘mat deb biladi. Shu sababli she‘rda azob va huzur, hijron va muhabbat bir-biriga qarama-qarshi emas, balki o‘zaro bog‘liq tushunchalar sifatida namoyon bo‘ladi. Bandning kompozitsion qurilishi ham alohida e‘tiborga loyiq. Dastlabki to‘rt misra ma‘shuqaning turli sifatlarini tavsiflashga xizmat qilsa, beshinchi misra “So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?” butun bandning mazmuniy markazini tashkil etadi. Ushbu takrorlanuvchi misra nafaqat radif vazifasini bajaradi, balki oshiq qalbidagi asosiy savol va ichki iztirobni mujassamlashtiradi. Shu tariqa har bir band mazmunan ana shu savol atrofida birlashadi. Misralar oxiridagi “sitamgorisan”, “shakarborisan”,

“xunxorisan”, “g’amxorisan”, “yorisan” so‘zlarining uyg‘un qo‘fiyalanishi she‘rning musiqiylikini kuchaytirgan.

*Keldi uzoring biri oy, biri kun misol,  
Ikki qoshing ham alar ustida bordur hilol,  
Kimsa degaymu munga o‘zgacha bir ehtimol,  
Sandin agar aylasam chun mani bedil savol,  
So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?*

Bandda oy, quyosh va hilol singari osmon jismlariga murojaat qilinishi Sharq mumtoz she‘riyatida keng tarqalgan poetik an‘analarning davomidir. Biroq Tabibiy mazkur an‘anaviy timsollardan shunchaki foydalanib qolmay, ularga yangi mazmun yuklaydi hamda ma‘shuqa jamolini tasvirlaydi. Ma‘lumki, mumtoz she‘riyatda oy poklik, latofat va maftunkorlik timsoli bo‘lsa, quyosh ulug‘vorlik, nur va hayot manbai sifatida talqin etiladi. Shoir yorning husnini shu ikki timsol bilan bog‘lash orqali uning go‘zalligini ta‘kidlaydi. Ma‘shuqaning qoshlari hilolga qiyoslanadi. Bu orqali shoir oy va quyosh ustida hilolning tasvirlanishini keltirar ekan, ma‘shuqa husnining mukammalligini yanada bo‘rttirib ko‘rsatadi. Hilolning egri shakli qoshlarning nafisligini ko‘rsatish bilan birga, oshiq qalbiga otilgan majoziy kamon vazifasini ham bajaradi.

“Kimsa degaymu munga o‘zgacha bir ehtimol” misrasi orqali yorning go‘zalligiga boshqa bir mezon topish yoki unga muqobil qiyos keltirishning imkonsizligi ifodalanadi. Bu yerda mubolag‘a san‘ati vositasida ma‘shuqa husnining beqiyosligi alohida urg‘ulanadi. Shoir nazarida yor shunchalik mukammalki, uni tavsiflash uchun mavjud tasvir vositalari ham yetarli emasdek tuyuladi.

To‘rtinchi misrada lirik qahramonning ruhiy holati yanada yaqqol namoyon bo‘ladi. U o‘zini “bedil”, ya‘ni dilidan ayrilgan, ishq sababli aql-u hushini yo‘qotgan oshiq sifatida tasvirlaydi. Mumtoz adabiyotda “bedillik” holati ishqning eng yuqori bosqichlaridan biri sifatida talqin qilinadi. Chunki haqiqiy oshiq ma‘shuqa husni oldida o‘zligini unutadi, uning mavjudligi faqat yor bilan bog‘lanadi. Shu sababli oshiqning ma‘shuqaga bergan savoli oddiy qiziqish emas, balki qalbining eng chuqur qatlamlaridan otilib chiqqan iztirobli murojaatdir.

Bandning yakuniy misrasi “So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?” – butun mazmunning markaziy nuqtasini tashkil etadi. Bu savol oshiqning iztirobini, umidini va ichki ikkilanishlarini mujassamlashtiradi. Bir tomondan, u ma‘shuqaning muhabbatiga sazovor bo‘lish istagini bildirsa, ikkinchi tomondan, o‘zining bunga munosib yoki nomunosib ekanligi haqidagi xavotirlarini ham ifodalaydi. Shu jihatdan qaraganda, mazkur radif bandning emotsional kuchini oshirib, lirik qahramon

ruhiyatining chuqur qatlamlarini ochib beradi.

Bandda tashbeh, mubolag‘a, takrir va istifhom kabi badiiy san‘atlar o‘zaro uyg‘unlashgan. Oy, quyosh va hilol obrazlari nafaqat ma‘shuqa husnini tavsiflash vositasi, balki ilohiy go‘zallik haqidagi tasavvurlarni ifodalovchi ramziy timsollar sifatida ham xizmat qiladi. Shu bois bandni faqat zohiriy go‘zallik madhiyasi sifatida emas, balki komillik, ma‘naviy yuksaklik va ilohiy jamol haqidagi falsafiy mushohada sifatida ham talqin qilish mumkin. Ushbu bandda shoir an‘anaviy mumtoz obrazlarni yangi mazmun bilan boyitib, ma‘shuqa husni va oshiq ruhiyatini yuksak badiiy saviyada tasvirlashga muvaffaq bo‘lgan. Natijada band o‘quvchida nafaqat estetik zavq uyg‘otadi, balki ishq va go‘zallik mohiyati haqida chuqur mushohada yuritishga ham undaydi.

Muxammasning navbatdagi bandida oshiq va ma‘shuqa munosabatlari yanada chuqurlashib, ishqning ruhiy-falsafiy mohiyati badiiy jihatdan ta‘sirchan talqin etiladi. Shoir ma‘shuqaning husnini tasvirlash bilan birga, oshiq qalbida kechayotgan iztirob va umid tuyg‘ularini ham bir butun holda gavdalantiradi. Band mazmunida ma‘shuqaning mutlaq go‘zalligi, oshiqning hijron azoblari va visol umidi o‘zaro uyg‘unlashib, murakkab poetik manzara hosil qiladi.

*Ey, yuzi husn-u jamol avji uza oftob,  
Ishq aro ko‘nglum uyin ayladi zulming xarob,  
Lutf ila tark aylabon lahzaye qahr-u itob,  
Ushbu savoling‘a ham emdi berib yuz javob,  
So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?*

Bandning birinchi misrasida ma‘shuqa husni “jamol avji uza oftob” tarzida tasvirlanadi. Bu o‘xshatish oddiy tashbeh emas, balki yor go‘zalligini ifodalovchi poetik timsoldir. Shoir yor yuzini quyoshga qiyoslash orqali uning jamoli barcha go‘zalliklarning markazi ekanligini ta‘kidlaydi. “Ko‘nglum uyin ayladi zulming xarob” misrasida yorning beparvoligi, e‘tiborsizligi yoki hijron azobi ma‘naviy makonni, qalbni vayron qiluvchi kuch sifatida tasvirlanadi. Uchinchi misrada oshiqning yorga bo‘lgan iltijosi yanada kuchayadi. U ma‘shuqadan qahr va malomatni bir lahza bo‘lsa ham unutib, lutf va marhamat ko‘rsatishini so‘raydi. Bu yerda “lutf” va “qahr”, “mehr” va “itob” tushunchalari o‘rtasida tazod yuzaga keladi. Shoir ana shu qarama-qarshi holatlar orqali muhabbatning murakkab tabiatini yoritadi. Chunki haqiqiy ishqda mehr bilan jafoni, visol bilan hijronni bir-biridan ajratib bo‘lmaydi. Oshiq uchun yorning g‘azabi ham, marhamati ham birdek qadrli. U qanchalik ozor chekmasin, ma‘shuqasidan yuz o‘girmaydi va undan yaxshilik kutishda davom etadi.

To‘rtinchi misrada lirik qahramonning ruhiy kechinmalari kulminatsion nuqtaga

yetadi. “Berib yuz javob” birikmasi mubolag‘a san‘ati asosida qo‘llanilgan bo‘lib, oshiqning ma‘shuqa e‘tiboriga bo‘lgan cheksiz ehtiyojini ifodalaydi. Aslida oshiqning savoli bitta, ammo u shu savolga yuzlab javob eshitishga ham tayyor. Bu holat muhabbatning inson ruhiyatiga qanchalik kuchli ta‘sir ko‘rsatishini ochib beradi. Chunki oshiq uchun ma‘shuqaning har bir so‘zi, har bir ishorasi ulkan ma‘naviy qiymat kasb etadi.

Bandning yakunlovchi misrasi muxammasning asosiy g‘oyaviy markazi sifatida yana takrorlanadi. “So‘yla manga, ey sanam, kimni sevar yorisan?” savoli tashqi ko‘rinishda oddiy murojaat bo‘lib tuyuladi. Biroq uning mazmun qatlamlari nihoyatda keng. Bu savolda rashk, umid, iztirob, muhabbat va sadoqat tuyg‘ulari birlashgan. Oshiq ma‘shuqasining muhabbatiga sazovor bo‘lishni istaydi, biroq shu bilan birga o‘zining bu baxtga munosib yoki nomunosib ekanligi haqida ichki iztirob ham chekadi. Shu sababli savol butun muxammas davomida takrorlanib, lirik qahramon ruhiyatining asosiy ifodachisiga aylanadi.

Bandning badiiy qurilishida tashbeh, tazod, mubolag‘a, takrir va istiora kabi san‘atlar uyg‘un holda qo‘llangan. Ayniqsa, “oftob”, “xarob”, “itob”, “javob” so‘zlari asosida yuzaga kelgan qofiyaviy tizim she‘rning musiqiylikini kuchaytirib, mazmun va shakl mutanosibligini ta‘minlaydi. Misralardagi ichki ohang va ritm oshiqning iztirobli kechinmalarini yanada ta‘sirchanroq his etishga yordam beradi.

**Xulosa.** Ahmad Tabibiy muxammaslari o‘zbek mumtoz she‘riyatida musammat janrining yuksak badiiy imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim adabiy hodisalardan biridir. Shoir ushbu janr vositasida ishq va sadoqat, visol va hijron, umid va iztirob kabi murakkab ruhiy kechinmalarni nafis poetik shaklda ifodalashga muvaffaq bo‘lgan. Muxammaslarda ma‘shuqa obrazi an‘anaviy mumtoz timsollar asosida yaratilgan bo‘lsa-da, ularga yuklangan badiiy-falsafiy mazmun Tabibiy uslubining o‘ziga xosligini ko‘rsatadi. Oshiqning ruhiy olami esa sadoqat, sabr, fidoyilik va muhabbat yo‘lida o‘zlikdan kechish kabi fazilatlar orqali yoritiladi. Shu jihatdan muxammaslarda dunyoviy va irfoniy qarashlar o‘zaro uyg‘unlashgan holda namoyon bo‘ladi. Tabibiy badiiy tasvir vositalaridan mahorat bilan foydalanib, mumtoz she‘riyatning poetik an‘analarini yangi mazmun bilan boyitgan. Tashbeh, istiora, mubolag‘a, tazod va takrir kabi san‘atlar she‘rlarning estetik qimmatini oshirib, ularning ta‘sir kuchini yanada kuchaytirgan. Muxammaslarning ohangdorligi, obrazlar tizimining mukammalligi hamda mazmun qatlamlarining kengligi shoirning yuksak badiiy salohiyatidan dalolat beradi.

### Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Amonov Sh. Ahmad Tabibiy turkiy devonlari qo‘lyozmalarining qiyosiy-matniy



- tadqiqi. – Toshkent: Bookmany print, 2023. – B.35.
2. Хусайний Атоулло. Бадойиъу-с-санойиъ. – Тошкент: Бадиий адабиёт, 1981. – 400 б.
  3. Boltayeva G. O‘zbek she’riyatida muxammas janri: genezisi, badiiy takomili: Filol. fan. d-ri. ... diss. – Navoiy, 2024. – B.15.
  4. Историческая поэтика. Итоги и перспективы изучения. – М.: Наука, 1986. – С.8-25.
  5. Орзибеков Р. Ўзбек лирик шеърини жанри. – Тошкент: Фан, 2006. – Б.66.
  6. Мусулмонкулов Р. Асрори сухан. – Душанбе: Ирфон, 1980. – Б.152.
  7. Кашифи Хусайн Ваиз. Бадоеъ ул-афкор. – Душанбе: Хумо, 2006. – С.61.
  8. Фанихўжаев Ф. Аҳмаджон Табибийнинг ҳаёти ва ижоди: Филол. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1969. – Б.27.
  9. Фанихўжаев Ф. Аҳмад Табибий (ҳаёти ва ижоди). – Тошкент: Фан, 1978. – Б.15.
  10. Askarov, D. (2022). In Particular Of Amiry's Composition Of Navai's Ghazal. *European Scholar Journal*, 3(12), 34-36.
  11. Dilmurod, A. (2025). National Idea Issues in Modern Film Dramaturgy (On the Example of Erkin A'zam's Film Dramas). *American Journal of Philological Sciences*, 5(05), 370-374.
  12. Dilmurod, A. (2025). Ideological and Artistic Characteristics of The Work “A Farewell to Arms”. *American Journal of Philological Sciences*, 5(04), 283-286.
  13. Asqarov, D. (2025). ADABIYOT FANINI O‘QITISHDA STEAMNI JORIY ETISH. *University Research Base*, 519-524.
  14. Asqarov, D. (2025). G‘OYA, MAVZU VA MA’NO MUSHTARAKLIGI. *University Research Base*, 350-360.
  15. Asqarov, D. (2024). AMIRIY LIRIKASIDA NAVOIYGA MUXAMMASLAR. *Инновационные исследования в современном мире: теория и практика*, 3(12), 87-93.
  16. Asqarov, D. (2022). Mukhammas form in the lyrics of Uvaysi. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(09), 5-9.
  17. Asqarov, D. (2022). MUKHAMMAS FORM IN THE LYRICS OF UVAYSI. *INTERNATIONAL JOURNAL OF RESEARCH IN COMMERCE, IT, ENGINEERING AND SOCIAL SCIENCES ISSN: 2349-7793 Impact Factor: 6.876*, 16(09), 5-9.
  18. Asqarov, D. (2023). AMIRIYNING NAVOIYGA MUXAMMASI. *Academic research in educational sciences*, 4(Conference Proceedings 1), 101-105.
  19. Asqarov, D. (2026, February). SULTONXON TO‘RA ADO IJODIDA NAVOIY AN‘ANALARI. In *Conferences (Vol. 2, No. 1, pp. 165-172)*.
  20. Asqarov, D., Abdullaev, H., Yanova, E., Axmedov, M., Safarov, T., Samiyeva, G., ... & Kabilov, K. (2026). Proactive Educational Frameworks for Early Diversion and Learning Support to Prevent Criminal Justice Involvement for Vulnerable Youth. *Journal of Intellectual Disabilities and Offending Behaviour*, 17(1), 46-56.
  21. Asqarov, D. (2026). NODIR–UZLATNING LIRIK MEROSI VA UNING G‘OYAVIY-BADIIY XUSUSIYATLARI. *Ijtimoiy-gumanitar sohada ilmiy-innovatsion tadqiqotlar*, 3(2), 382-388.